Бундай мактабдан сўнг мамлуклар ўз ватани ва қариндошлари билан алоқани узиб, ўзларининг янги хўжайини - Хушдошга ва ўша мактабдаги гуруҳ мамлуклари билан бир-бирларига содиқ бўлдилар. Шундай қилиб, кенгайтирилган сунбий оила яратилган. Мамлуклар бир авлоднинг ҳарбийлардан ташкил топган жамоасига айланган. Ҳарбий мактаб тарбияланувчилари орасида бағрикенгликнинг бир кўриниши сифатида тинчлик ҳамда ҳамфикрлик сақланиб қолган. Ҳаттоки, битирувчилар ҳам ўзаро муносабатларини узоқ йиллар давомида тотувликни сақлашга эришганлар.

⁸ عبد الفتاح عاشور، المجتمع المصري في عصر سلاطين المماليك، القاهرة: دار النهضة العربية، 1962. – ص. 24.

VOLONTYORLIK FAOLIYATINING INSONIYAT HAYOTIDAGI MUHIM O'RNI VA AHAMIYATI

Olimjonova Umida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti

akademik litseyi o'quvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada volontyorlik harakatining shaxslararo munosabatlarda va jamiyat hayotida egallagan o'rni, volontyorlik harakatlarining muhim xususiyatlari, volontyorlik tushunchasi, volontyorlik faoliyatining asosiy tamoyillari, volontyorlik harakatida ishtirok etish uchun yosh chegaralari hamda volontyorlik turlari, insonlarning volontyorlik harakatlarida ishtirok yuzasidan dastlabki nuqtayi nazarlar va nazariyalar tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *volontyorlik, kirishimlilik, vijdonlilik, ijtimoiy faollik, altruizm, tolerantlik, empatiya, mas'uliyat, kommunikativlik, hayrixohlik, ijtimoiy ta'sirchanlik, profilaktik volontyorlik, donorlik*

Volontyorlar ko'ngilli tarzda (yanada tushunarliroq qilib aytilsa, xolis, fidokorona, savob uchun) insonlar va jamiyat uchun manfaatli bo'lgan, faoliyatida aniq maqsadga ega bo'lgan guruhlar hisoblanadi. Dunyodagi boshqa mamlakatlarda volontyorlik faoliyati rivojlanib borayotganini istisno etmagan holda aytaman-ki, yurtimizda ushbu zamonaviy ijtimoiy harakat azaldan chuqur ildiz otgan. Hozirgi vaqtda yer yuzida 100 ga yaqin mamlakatda yirik professional volontyorlik tashkilotlari mavjud. Ular davlatlar tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi bois, ko'ngillilar sektori jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy bo'lagiga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda volontyorlar faoliyatini tartibga soluvchi aniq mexanizm mavjud bo'lmaganligi sababli, qonunchilikdagi bo'shliqni to'ldirish hamda ushbu faoliyat turi bilan bog'liq holda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan noqonuniy hatti harakatlarning oldini olish maqsadida 2019 yil 2 dekabrda O'RQ-585-son — Volontyorlik faoliyati to'g'risidagi Qonun qabul qilindi. Qonunning 3-moddasi faoliyat to'g'risidagi asosiy tushunchalarni belgilaydi: volontyor - volontyorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs; volontyorlik - fuqarolar, ularning guruhlari yoki volontyorlik tashkilotlari tomonidan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab ixtiyoriy faoliyatni amalga oshirish; volontyorlik faoliyati - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bepul asosda amalga oshiriladigan, erkin xohish-irodaga ko'ra bajariladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan, jamoat uchun foydali bo'lgan ixtiyoriy faoliyat turi hisoblanadi. Volontyorlik faoliyatining maqsad va vazifalari: Volontyorlik faoliyatining maqsadlari jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman jamiyatga yordam ko'rsatish,

atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarda ularni tashkil etuvchilarning roziligi bilan ishtirok etish, jamiyatda fuqarolik nuqtai nazarini, o'zini o'zi tashkil etishni, ijtimoiy mas'uliyat, birdamlik, o'zaro yordam berish va rahm-shafqat tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir. Qonunga ko'ra volontyorlik faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat: fuqarolarni aholining turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan turli xil jamoat faoliyatiga jalb etish mexanizmlarini shakllantirish; ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsatish; volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash; aholida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash; fuqarolar tomonidan ijtimoiy vazifalarni hal etish uchun o'zini o'zi namoyon etish va o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini olish. Qonunga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lgan jismoniy shaxslar volontyorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Biz bugun Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida mustaqil, insonparvarlik, xaliqparvarlik xarakteriga ega bo'lgan davlatni, yuksak axloqli fuqarolik jamiyat yaratmoqdamiz. Volontyorlik harakati uzoq tarixga ega. Uning kelib chiqishi haqida bir qator manbalarda turlicha faktlar keltirilgan. Ularga XVII asrda fransuzlarda —volontairel, italiyanlarda —volontario, nemislarda —volontair degan bir xil ma'noni anglatuvchi tushunchalar paydo bo'lgan. Bugungi kunda volontyorlik harakatining G'arb modeli dunyo bo'ylab keng rivojlangan. 1990-yilda Xalqaro Volontyorlar Assotsiatsiyasining XI Kongresida — Butun dunyo volontyorlar deklaratsiyasi qabul qilindi. 1996-yil Yevropa Ittifoqi tomonidan — Yevropa volontyorlik xizmati (EVS) tashkil etildi. Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan volontyorlik va volontyorlar faoliyatining davlat boshqaruvidagi muhim ahamiyatini inobatga olib, 2011-yilni rasman tarzda —Yevropada volontyorlar yili deb nomlandi. BMT tomonidan 2001 yil —Xalqaro volontyorlar yili deb e'lon qilindi. Volontyorlardan tuzilgan guruhlar pademiya sabab tashkil etilgan markazlarda, —Xavsiz yordam aksiyasi, —Saxovat va ko'mak umumxalq harakati, —Sardoba sari saxovat karvoni kabi xariya aksiyalarida faol ishtirok etib, xalqimiz dardiga malham bo'lishdi. Mamlakatimizda birinchi bor o'tkazilgan O'zbekiston yoshlari forumida Prezidentimiz yoshlarimizning bu tashabbuslari va faolligini e'tirof etgan holda aytgan ediki: —El boshiga ish tushkanda, yoshlarimiz kerak bo'lsa aziz jonlarini garovga qo'yib xalqimiz dardiga darmon bo'ldilar. O'zbekiston bo'ylab 14 ta hududda volontyorlar maktablari ochildi. [1] Volontyorlik harakati ham uni amalga oshirgan insonga ham undan ko'mak olgan insonga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan: volontyor sifatida boshqalarga ko'mak bergan inson ma'naviy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalaydi, o'z ishidan ruhiy kuch quvvat oladi, zavqlanadi, insonligini his qiladi va hakoza. Bu faoliyatda bir marta ishtirok etgan insonning hayotga qarashi butunlay ijobiy tomonga o'zgaradi. Ikkinchidan: volontyorlik harakati ko'magidan foydalangan inson o'zining boshqalar uchun

kerakliligini his qiladi, motivatsiya oladi, hayotga intilishi oshadi, o'ziga imkoniyatlar ochadi va rivojlanadi. **METODOLOGIYA.** —Volontyorlik so'zining o'zi lotin tilidagi voluntarius (ko'ngilli) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, jamiyat rivoji uchun beg'araz jismoniy mehnat kabi, pul ko'rinishidagi mukofotni kutmasdan turli xizmatlar ko'rsatish va ma'naviy ko'mak berish kabilarni o'z ichiga oluvchi tushunchalarning keng doirasini qamrab oladi. Biroq volontyorlikni nafaqat pul ko'rinishidagi mukofotdan voz kechish sifatida ifodalash mumkin, bu yerda ma'naviy jihat ham kam ahamiyatga ega bo'lmagan tarkibiy qism hisoblanadi. Odatda har qanday mehnat taqdirlanishi lozim, deb hisoblash odat bo'lib qolgan. Biroq ish uchun har doim ham pul yoki ko'rinarli qadriyatlar mukofot bo'la olmaydi. Zamonaviy dunyoda boshqalarga hech qanday moddiy foydaga umid qilmasdan, tamomila ixtiyoriy ravishda yordam berishga tayyor bo'lgan odamlarning alohida toifasi mavjud. Bu kabi ko'ngillilarni volontyor deb ataydilar.

ASOSIY QISM

.Ixtiyoriy ravishda va beg'araz yordam ko'rsatishga intilgan odam volontyor deb ataladi. Volontyorlar o'zi kim va ular nima bilan

shug'ullanishlarini gazetalaridagi maqolalar va hozirgi zamon ijtimoiy tarmoqlaridan bilib olish mumkin. Shaharlarning doimiy ravishdagi moliyaviy yetishmovchiligi bilan bog'liq ravishda, ushbu OAV ko'pincha odamlarni o'z shahriga beg'araz yordam ko'rsatishga chaqiradilar.[2] Bu o'z kuchlari va vaqtlarini ixtiyoriy ravishda jamiyat yoki muayyan inson foydasiga sarflashga tayyor bo'lgan insonlardir. —Volontyor so'zining sinonimi —ko'ngillil so'zi hisoblanadi. Ayrim vaqtlarda volontyorlarni ijtimoiy yordamchilar, shtatdan tashqari ko'ngilli xodimlar, yordamchilar, yetakchilar, vositachilar deb ataydilar. Ularni birlashtiruvchi umumiylik – ko'ngillilik demakdir (pul ishning asosiy sababi hisoblanmaydi). Nomlardagi farqni asosan ular o'z faoliyati davomida qo'llaydigan metodikalar belgilab beradi. Volontyor – bu har qanday jismoniy shaxs, jumladan, volontyorlik faoliyatiga asoslangan holda volontyorlik faoliyatini amalga oshirgan va volontyorlikni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardir.[3] 4 guruh volontyorlik faoliyatida o'zini juda yaxshi tomondan namoyon qiladi:

- 1.Katta sinf o'quvchilari, kolledjlar (kasbiy ta'lim muassasalari) o'quvchilari;
- 2.OTM talabalari;
- 3.Tibbiyot xodimlari, psixologlar, pedagoglar, ijtimoiy xodimlar, sotsiologlar;
- 4.Ijtimoiy tashkilotlar xodimlari.

Yuqorida sanab o'tilgan toifalardan tashqari quyidagilar ham potensial ravishda volontyor bo'lishlari mumkin: Qarindoshlar, tanishlar, do'stlar; Qarindoshlarning, do'stlar va tanishlarning do'stlari; Axborot kompaniyasi doirasida taklif etilgan yoshlar; o'smirlar va yoshlar klublarining ishtirokchilari.[4] Biz yuqorida volontyorlik faolitini qay darajada ommalashib borayotganini bilib oldik.

Endi esa Volontyorlik faoliyatini amalga oshirishda zarur bo`lgan tamoyillar to`g`risida to`xtalib o`tamiz. Ular quyidagicha tavsiflanadi. Kirishimlilik

Mashg`ulotni guruh bilan oddiy muloqot shaklida olib borish va natijada qo`yilgan maqsadlarga erishish – aynan shu guruhni samarali boshqarish demakdir. Boshlovchining nutqi ravon, tushunarli va toza, parazit so`zlarning ishtiroki minimum darajaga tushirilgan bo`lishi lozim. Maqsadli guruh slengini bilish, har qanday so`zning sinoimini maksimal darajada tez topish ko`nikmasi zarur. Gapirish uslubi sokin, shu bilan birga tezkor bo`lishi zarur. Harakatlarga boy bo`lishi, biroq kung-fuga o`xshash bo`lmasligi, tana tili esa – ifodali (bunda tana shakli hech qanday rol o`ynamaydi) bo`lishi lozim. Har doim xo`shshaygan emas, balki xushchaqchaq inson bilan muloqot qilish yoqimli. Agar siz soqov bo`lmasangiz kirishimlilikni rivojlantirish imkoniyati yuqori. Vijdonlilik Boshlovchining eng asosiy xislati – bu vijdonlilik. Bu ma`naviylik, insoniylik, axloqiylik kabilarni qamrab oluvchi kompleks tushuncha demakdir. Ushbu xislatlarsiz boshlovchi manipulyatsiya qiluvchiga, dasturning rasmiy ijrochisiga aylanib qoladi. Ijtimoiy faollik Agar sizda volontyor bo`lish istagi shakllanib ulgurgan bo`lsa, u holda siz volontyor uchun birinchi navbatda, eng zarur bo`lgan xislat – ijtimoiy faollik xislatiga egasiz. Va aynan sizning o`z atrofingizdagi dunyoni o`zgartirish istagingiz, atrof voqelikka oqilona munosabatingiz sizda ko`ngilli bo`lish ehtiyojini keltirib chiqargan. Biroq ijtimoiy faollik – bu volontyor bo`lishga qaror qilgan kishining yagona xislati emas. Ko`ngillilikni amalga oshirishning imkoni bo`lmagan boshqa fazilatlar ham mavjud. Altruizm Altruizmsiz volontyorlik umuman mavjud bo`la olmaydi. Sizda boshqa birovning farovonligi va manfaatlarini o`zingiznikidan ustun qo`yish imkonini beruvchi altruizm bormi? Axir o`z vaqtingizni yordamga muhtoj keksaga sarf qilgan holda, bolalar uyi yoki saratonga chalingan bolalar bo`linmasiga borgan holda siz faoliyatning pul olib keladigan boshqa turiga sarflashingiz mumkin bo`lgan vaqtingizni sarf qilasiz. Yoki oddiygina boshqa odamlar kabi vaqtingizni chog`o`tkazishingiz mumkin. Tolerantlik va sabrlilik Ular doimo yonma-yon yuradi – tolerantlik, sabrlilik. Axir volontyor boshqa odamning qarashlarining qadrli ekanligini, bu qarashlar unga hattoki yot bo`lsa ham, tan ola bilishi lozim. Volontyorlik yordamiga tamomila turli tuman guruhlarga mansub kishilar muhtoj bo`ladilar. Volontyorlik sohasida birga ishlashga to`g`ri kelishi mumkin bo`lgan har bir insonga hurmat, ezigulik, yoqtirish, sabrlilik, bosiqlik, boshqa birovni tushuna olish qobiliyati – bularning bari tolerantlik demakdir.

Empatiya. Siz empatiya kabi xislatga egamisiz? Siz bolalarga nisbatan hayrixoh, ziyrak

va ularga nisbatan g`amxo`r bo`la olasizmi, siz o`zingizni bolaga teng ko`rib uning tashvishlarini bo`lisha olasizmi, ularni xavotirga solayotgan muammolarga o`g`il bola yoki qiz bola ko`zlari bilan boqa olasizmi? Sizning bolaga bergan vadangizga

sodiqligingiz, hissiy ta'sirchanlik – bu volontyorlik faoliyatini amalga oshirishda muhim o`rin tutgan empatiya demakdir. Mas'uliyat.

O`zi va boshqa odamlar uchun ma'naviy mas'uliyatni his qilmasdan turib volontyor bo`lib ishlash imkoni mavjud emas. Mas'uliyat – bu yordamga muhtojlarga yordam ko`rsatish istagi, bu kimningdir og`rig`ini o`z og`rig`i sifatida qabul qila olish qobiliyati, bu rahmdillik va insoniylikdir.

Kommunikativlik (Aloqaga kirisha olish qobiliyati). Volontyorlikda kommunikativ mahorat boshqa har qanday faoliyat turidagidan ko`ra ko`proq zarur. Aynan muloqot jarayonida volontyor va volontyor yordamga kelgan inson o`rtasida ko`zga ko`rinmas bir bog`liqlik paydo bo`ladi. Bu xoh keksa bo`lsin xoh bola. Siz muloqot qila olasizmi? O`zingiz ko`rishga kelgan odam bilan do`st bo`la olasizmi?

Hayrixohlik. U muloqot qilayotgan har bir kishi, uning o`ziga nisbatan yaxshi munosabatda ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim. Auditoriya bilan —kurashishl umuman mumkin emas, volontyor har qanday usullarni qo`llagan holda nizodan qochishi lozim. Va albatta, atrofdagi odamlar volontyorning o`ziga bo`lgan hurmatini his qilib turishlari lozim; □ e'tiborli va xushmuomala. U o`zining shaxsiy simpatiya va antipatiyalariga qaramasdan har bir kishiga e'tibor qaratishi lozim. Biroq taklifsiz birovning hayotiga, uning boshqa odamlar bilan o`zaro munosabatlariga, uning ichki dunyosiga kirmaslik zarur. Ushbu taklifga loyiq bo`lish lozim; □ talabchan. Agar talablar oqilona bo`lsa, talab qilishdan qo`rqmaslik lozim. —O`ta marhamatlil volontyorlarning obro`si juda past; □ adolatli. Boshqalarda ham sizning qarashlaringiz mavjud ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Volontyorning o`zining qilayotgan ishlari to`g`ri va adolatli ekanligiga ishonishi yetarli emas, opponent ham buni tushunishi lozim. Uni bunga ishontirish zarur; □ samimiy va halol. Ijtimoiy ta'sirchanlik. Boshlovchining yana bir muhim xislati ijtimoiy ta'sirchanlik hisoblanadi. U boshqa odamlarning holati, ularning hissiyotlari va kechinmalarini his qilishni, boshqa odamlarga qayg`udosh bo`lishni taqozo qiladi. Ijtimoiy ta'sirchanliksiz boshlovchining munosabati quruq, o`ta rasmiy bo`ladi va u hattoki manipulyatsiya qilishga moyil. Guruh a'zolarining kiyimiga nisbatan o`ta qimmat kiyimlarni kiyish to`g`ri emas, aks holda sizning «Wrangles» firmasida ishlab chiqilgan djinsi shimingiz «Tom Ford» atiringiz bilan birgalikda unchalik boy bo`lmagan auditoriyaning g`ashini keltiruvchi omil bo`lib xizmat qilishi mumkin.[5]

—Ko`ngillilik ham ma'naviy xislat, ham fuqarolik fazilati hisoblanadi. Bu – inson ma'naviyatida chuqur ildizlarga va uzoq kelajakka singib ketuvchi ijtimoiy va madaniy oqibatlariga ega bo`lgan faoliyatdir. Boshqalarning ehtiyojlariga quloq tutish, ular to`g`risida qayg`urish, yordamga kelish – bularning bari oliy insoniy xislatlar ifodasidir. Odamlar bir birlariga mehr va hamdardlik sababli yordam beradilar.[6]

Volontyor – bu bag`araz ishlagan holda ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan loyihalarni amalga oshirishga o`z hissasini qo`shishga intilgan insondir.

Djon Xopkins universiteti tomonidan chop etilgan —Ko`ngillilar – bebaho manba o`quv qo`llanmasida volontyorlikda onglik hissi alohida ta`kidlab o`tilgan. —Volontyorlik – bu boshqalarning manfaati yo`lida haq to`lanmaydigan, ongli ravishdagi, ixtiyoriy faoliyat. Boshqalarning manfaati uchun ongli ravishda va beg`araz yordam ko`rsatish uchun mehnat qiladigan har bir inson volontyor, deb atalishi mumkin.

Biz maxsus dastur bo`yicha o`qigan va profilaktik faoliyatni (treninglar o`tkazish, ommaviy aksiyalarni, stansion o`yinlarni tayyorlash va o`tkazish, poligrafik mahsulotlar va boshqalarni ishlab chiqishda ishtirok etish) amalga oshirishga yordam beruvchi noprofessional ko`ngilli yordamchilarni volotyorlar, deb ataymiz.

Asosiy xususiyatlar:

- Insonning yoshi, jinsi, ma`lumoti, dinidan qat`iy nazar u bepul ishlaydi
- Birovning tayziqisiz faoliyat olib boradi
- Shaxsiy manfaatga (sababga) ega
- Faoliyat yo`nalishini erkin tarzda tanlaydi
- Jamiyat farovonligi uchun mehnat qiladi.[7]

Jahon hamjamiyati rivojlangani sari insoniyat hayotida ijtimoiy sohalar soni ortib bormoqda bu esa turli soholarda volontyorlik faoliyatining yo`nalishlari paydo bo`lishiga turtki bo`lmoqda. Hozirgi kunda volontyorlik faoliyatining qator yo`nalishlari mavjud. Ular quyidagilar: Ijtimoiy volontyorlik, bu volotyorlikning eng mashhur turi. Bu yolg`iz faxriylarga, bolalarga yordam, odamlarning ijtimoiy himoyalanmagan, deb nomlanuvchi toifasi bilan ish olib borish demakdir. Ijtimoiy volontyorlik – bu tarixdan shakllangan yo`nalish. Bugungi kunda juda ko`p hayriya fondlari va volontyorlik tashkilotlari aynan ijtimoiy volontyorlik bilan shug`ullanadilar. Vatanparvarlik ruhi bilan sug`orilgan volontyorlik (tarixiy xotirani tarbiyalash va saqlashga yo`naltirilgan ko`ngillilik faoliyati). Sportga oid volontyorlik o`ziga xos farqlarga ega, chunki bu holatda volontyorning alohida ko`nikmalari muhim, masalan, chet tilini bilish, chunki ko`pincha sport hodisalari musobaqalarda turli mamlakatlarning ishtirokini taqozo qiladi. Bu sportning muayyan turini bilish, ayniqsa bu sportning muayyan turiga bag`ishlangan chempionatdagi volotyorlik bo`lsa. Bu qandaydir tolerantlik (bag`rikenglik), dunyoga ochiqlik, turli odamlar bilan muloqot qilish istagi.

Madaniy volontyorlik (madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan ko`ngilli faoliyat, madaniy maydonlarning ochiqligi va ommaviyligi muhitini yaratish, madaniy tenglikni shakllantirish, madaniy muhitni yoshlar orasida ommalashtirish va tarixiy xotirani saqlash). Ekologik volontyorlik. Bu nafaqat tabiatni uni klassik anglashda saqlash, balki flora va faunani himoya qilish ham

demakdir. Bu megapolis ekologiyasi. Bu ayniqsa yirik shaharlarga xos. Bu yerda ma'rifatparvarlik faoliyati, aksiyalar, proektlar haqida ham gapirish mumkin; ekologik volontyorlik bilan tizimli ravishda shug'ullanuvchi jamg'arma va tashkilotlar mavjud.

Profilaktik volontyorlik (sog'lom turmush tarzi, sportni targ'ibot qilish, salbiy holatlar, zararli odatlarning oldini olishga yo'naltirilgan ko'ngillilik faoliyati).

Donorlik. Ko'pchilik donor bo'lishni xohlaydilar va donorga aylanadilar. Biroq agar donorlikni faqatgina qon topshirish emas, balki ma'rifat kabi ulkan bo'g'imni volontyorlik, deb hisoblaydigan bo'lsak, u holda bu yerda volontyorlar juda zarur. Odamlar predmetni tanib uni tushuna boshlaganlarida, ular unga boshqacha munosabatda bo'lishni boshlaydilar. Bizda juda ko'p holatlarda odamlar donorlikdan qo'rqishlari, yoki u haqda umuman bilmasliklari sababli donorlar yetishmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning katta qismini yoshlar, asosan, universitet talabalari tashkil etadi. Ular volontyorlik yo'nalishlarini tanlashda o'z sohalariga yaqin yoki kelajakdagi rejaları bilan bog'liq yo'nalishlarni tanlashga e'tibor berishi mumkin.

Albatta, keyinchalik bunday faoliyat ularda kerakli ko'nikmalarni rivojlantirishda

yordam beradi. Hattoki, faoliyat turi ko'ngilli mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lmagan taqdirda ham unda liderlik, muloqot qilish, ochiq fikrlash kabi har qanday soha uchun kerakli ko'nikmalarni hosil qilishga zamin yaratadi.

Chet ellarda, ish beruvchilar xodimlarni ishga olishda ularning oldingi volontyorlik faoliyatiga alohida e'tibor berib, yuqori baho beradilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 51% bitiruvchilar ish o'rniga ega bo'lishda volontyorlik faoliyati ularga katta yordam berganini ta'kidlashgan ekan. O'zbekistondavolontyorlikka keng maydon yaratish orqali uni hamma bilishi kerak bo'lgan muhim ahamiyatga ega, yosh yoki dinni tanlamaydigan umuminsoniy harakatiga jamiyatning muhim elementiga aylantirish zamon talab i. Uning asosiy maqsadijismaniy va yuridik shaxslarga , umuman jamiyatga yordam ko'rsatish, atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarda ularni tashkil etuvchilarning roziligi bilan ishtirok etish, jamiyatda fuqorolik nuqtai nazarini, o'zini o'zi tashkil etishni, ijtimoiy mas'uliyat, birdamlik, o'zaro yordam berish va rahm-shafqat tuyg'ularini shakillantirishdan iboratdir. Volontyorlik faoliyati davlat va jamiyat ravnaqi yo'lida bir qator ijobiy vazifalarni bajaradi. Bu esa insonlar

o'rtasida mehr-muruvat va yaxshilik fazilatlarining abadiy bo'lishiga hizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKII/REFERENCES:

1. —Volontyorlikl bo'yicha qo'llanma. Matn: Uslubiy qo'llanma /mualliflar jamoasi.-Toshkent: Zarvaraq nashiriyoti. 2021.-56 b.
2. Ganieva Marifat Xabibovna, Latipova Nodira Muxtarjanovna, Qayumov Qahramon Nozimjonovich, Ahmedov Qahramon Abdulxamid o'g'li. Volontyolar uchun trening. Uslubiy qo'llanma – Toshkent.: O`zMU 2020. – 104 b.
3. «Orzular ushaladi» jamg`armasi, http://www.japanesepage.kiev.ua/rus/help_the_project_who_are_volunters.htm
4. (Zapisnaya knijka volontera. — Ufa: Alfa-reklama, 2014. – 92 s.)
5. Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasi rezolyusiyasi A/RES/56/38 (2001g.)
6. —Ko`ngillilar – qadrli manba qo'llanmasidan. – Moskva Olchman, P. Djordan. Djon Xopkins universiteti, 1997g.
7. Perm hududiy xuquqni himoya qilish markazi (PRPS), http://www.prpc.ru/met_nko/060613_1.shtml.
8. Ilin Ye. P. Rag`bat va sabablar / Ye.P. Ilin. – SPb.: Piter, 2011. – 413-bet.

YOSHLARDA MILLIY-MA'NAVIY VA AXLOQIY IDENTIKLIKNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

L.Tashayev

Samarqand davlat chet tillar instituti erkin tadqiqotchisi

Yoshlarda axloqiy mansublikni anglatish ularda milliy g'urur, milliy iftixorni shakllantirish va mustahkamlash asosida ularning ijtimoiy faolliklarini oshirishga alohida ahamiyat berish lozimdir. Aqliy teranlik, ruhiy sog'lomlik, ma'naviy etuklik, insof-u chin diyonat, mexr-muruvvat, azal-oqibat – bular barchasi ma'rifatli, ma'naviyatli insonlarning asosiy hislatlari hisoblanadi. Mana shu hislatlarni yoshlarimizda axloqiy ongida shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Arastu deydi: “Uch omil odamlarni yaxshi va ezgu xislatli qiladi: tabiat, odat va aql. Bu omillar insonda uyg'un holda mavjud bo'lishi kerak”⁹ Shundan ham ko'rinib turibdiki inson o'zi yashab turgan tabiatni yaxshi bilishi, yaxshi narsalarga odatlanishi va eng asosiysi bu ikki amalni bajarish uchun inson aqilli bo'lishi lozimdir.

Hozirgi globallashayotgan va tez suratlar bilan o'zgarayotgan dunyo maydonida qattiq intizomli, chuqur mas'uliyatli, mustaxkam sabr-bardoshli, chin diyonatli, pok vijdonli, iymonli, to'g'ri e'tiqodli, tolerantli, xalqparvar, ijtimoiy faol va shunga o'xshagan oliyjanob hislatlarga ega bo'lgan yoshlar yurtimiz rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklarni vujudga keltirishga qodir bo'lgan haqiqiy axloqiy mansublikga ega bo'lgan yoshlar sifatida rivojlanadi.

Ijtimoiy rivojlanishning har qanday taraqqiy bosqichida shaxsning o'z-o'zini tushinishi, qadriyatlarini qay darajada qadrlashi, jamiyat va mamlakat uchun qay yo'sinda xizmat qila olish imkoniyati va harakatlariga ham bevosita bog'liq. Bularning barchasi yoshlarning axloqiy identikligi bilan bevosita bog'liq. Bugungi kundagi yoshlarning ijtimoiy faolligi va axloqiy identikligini rivojlantirish, deganda ularning ijtimoiy jarayonlarda ongli ravishda, mustaqil ishtirok etishlari, zarur bo'lganida, ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga tashqaridan bo'ladigan barcha havf-xatarlarga berilmasdan o'zining mustaqil pozitsiyasida tura olishi tushuniladi.

Yoshlar mas'uliyati ijtimoiylashuv jarayonida yoshlarning yetukligini belgilab beruvchi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Axloqiy identiklikning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsad va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni ko'ra bilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq-yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini doimo ta'minlaydi. “Shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotida ibrat muhim o'rin tutadi, inson fe'l-atvorini faqat pand-

⁹ Арасту политика. – М.: Мысл, 1997. – 242 с

nasihat, dashnom va va'z aytishlar emas, balki munosabat va ibrat shakllantiradi"¹⁰, jumladan, axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat va axloqiy munosabat uyg'un holda in'ikos etadi.

Aniq bir maqsadi va rejasi mavjud bo'lmagan inson hayotda qiynaladi. Bu jarayon o'zligini anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan karakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnashishida ma'lum ma'noda ideal rol o'ynaydi. Yoshlarda axloqiy mansublik taraqqiyoti bo'yicha jahon ilmida to'plangan nazariy qarashlar hamda O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu jarayon, eng avvalo, oilaviy yashash tarzida, jamoada, ma'lum faoliyat turlarida shakllanadi. Yoshlar o'zining axloqiy identiklik holati hamda turli axloq normalarini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar davri bo'lgani sababli, yoshlar orasida ustuvor faoliyat hisoblangan ta'lim jarayoni muhim omil hisoblanadi.

Yoshlarda axloqiy identiklikni rivojlantirishda milliy qadriyatlar jamiyat yoki mamlakat uchun aziz bo'lgan e'tiqod, tamoyil va ideallar muxim rol o'ynaydi. Yoshlar millatning o'ziga hosligini belgilaydigan, madaniyatini shakllantiradigan me'yorlar, urf-odatlar, an'analarni keying avlodga o'tkazadigan muxim figura bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni milliy qadriyatlar vositasi orqali axloqiy tarbiyalashda ularda vatanparvarlik, hokimiyatni hurmat qilish, kuchli mehnat odob-axloqi, ijtimoiy adolatga sodiqlik kabi hislatlar tarkib topadi. Bu qadriyatlar ko'pincha milliy siyosat, jamiyat va odamlar va ularning hukumati o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda mamlakat madaniyati, o'ziga xosligi va ijtimoiy tuzilish muhim rol o'ynaydi. Ular yoshlarni birlashtirgan va milliy birdamlik tuyg'usini yaratadigan umumiy e'tiqodlar, urf-odatlar va an'analarni ta'minlaydigan asosiy vosita hisoblanadi.

Yoshlarda axloqiy identiklikni rivojlantirishda milliy qadriyatlar ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash, qonun va tartibni hurmat qilish, umumiy manfaatlar uchun mas'uliyat hissini shakllantirish muxim ahamiyatga egadir. Milliy qadriyatlar shuningdek, axloqiy kompas bo'lib, yoshlarning qarorlarini boshqaradi va shaxsiy va jamoaviy mas'uliyatga, shu jumladan o'z mamlakatiga, jamiyatiga va oilasiga munosabatini shakllantiradi.

Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga yanada singdirish orqali mamlakatni rivojlantirish yo'lidagi umumiy maqsad va qadriyatlar shakllanadi bu orqali ijtimoiy barqarorlik, siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga yordam berishi mumkin. Umuman olganda, milliy qadriyatlar yoshlarning o'ziga xosligining hal qiluvchi jihati bo'lib, uning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy qadriyatlar har bir yosh avlodning o'ziga hosligining ramzi bo'lib xizmat qiladigan o'ziga hos milliy mansubliklari mavjud.

¹⁰ Qarang: Ochilova B.M. Ajdodlar merosiga ixlosmandlik va shaxs ma'naviy-axloqiy kamoloti.: F.f.d-ri ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtor.....f. – Toshkent: O'zMU, 2005. – 22 b.

Yurtimiz misolida milliy qadriyatlarga aylangan ammo xozirgi vaqtda ancha o'zgarayotgan mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, mardlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar kiradi. Bu qadriyatlar avloddan-avlodga o'tib, yoshlar madaniyatining shakllanishiga yordam berdi. Misol uchun, mehmondo'stlik o'zbek madaniyatiga shunchalik chuqur singib ketganki, mehmonlar ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, muqaddas sanalib, doimo kutib olinadi. Yurtimizda azal-azaldan kattalarga hurmat va mehr-oqibat yuksak qadrlangan va ular o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy ko'rinishini aks ettirgan.

So'ngi yillarda ayrim yoshlar orasida milliy qadriyatlarga nisbatan salbiy munosabatlarni ko'proq kuzatilishi yuz bermoqda. Bugungi kunda yoshlarda axloqiy identiklikni yanada shakllantirish uchun ular quyidagi jixatlarni yaxshi o'rganishi lozim.

1. Oila muqaddasligi: Xalqimiz madaniyatida oila muqaddas sanaladi va bu qo'rg'on buzilishiga yo'l qo'yilmaydi va oilaviy qadriyatlar juda hurmat qilinadi. Kattalarni hurmat qilish kichiklarga izzatda bo'lish hamda oila azolari bilan doimiy mustaxkam aloqalarni yo'lga qo'yish muxim ahamiyatga ega hisoblanadi.

2. Mexnat qilish : Yurtimiz insonlari azal-azaldan mehnatni qadrlagan, chunki u muvaffaqiyat kaliti sifatida qaralgan. Odamlar o'z maqsadlariga erishish yo'lida astoydil mehnat qilishga, yurt ravnaqiga hissa qo'shishga da'vat etiladi.

3. Vatanni qadrlash : Vatanga muhabbat xalq qadriyatning o'ziga hosligining ajralmas qismidir. Necha ming yillar va asrlar mobaynida insonlar o'z yurtini himoya qilishgan va uning har bir qarich erini qadriga etishgan.

4. Mardlik: O'zbekiston uzoq tarixga ega bo'lgan mardlik va jasorat. Muvaffaqiyatga erishish va millatni himoya qilish uchun odamlar qiyinchiliklarga duch kelganda mard bo'lishga da'vat etiladi. Milliy o'zlikni anglatuvchi ramzlar mamlakatning o'ziga hos madaniy-tarixiy merosi timsoli bo'lib, ular millatni shakllantiradigan qadriyatlar va e'tiqodlar haqida qisqacha ma'lumot beradi.

Milliy qadriyatlar ko'pincha madaniy e'tiqodlar, urf-odatlar, urf-odatlar, tillar va hatto xalq ertaklari kabi narsalarda namoyon bo'ladi.

Ular odamlar o'rtasida birdamlik va umumiy maqsad tuyg'usini yaratishga yordam beradi va hurmat, bag'rikenglik va o'zaro tushunish kabi ijobiy ijtimoiy xatti-harakatlarni rivojlantirishi mumkin. Milliy qadriyatlarni tiklash an'anaviy urf-odatlar va tillarni jonlantirish, ta'lim orqali milliy g'ururni rag'batlantirish va muhim madaniy meros ob'ektlarini saqlash kabi sa'y-harakatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Milliy qadriyatlarning ahamiyatini anglab, ularni asrab-avaylash va targ'ib qilish orqali mamlakat o'zining jamoaviy o'ziga xosligini mustahkamlashga yordam berishi va o'z xalqi o'rtasida tegishlilik va umumiy maqsadlarni uyg'otishi mumkin noyob merosi va madaniyatini qo'llab-quvvatlaydi. Milliy qadriyatlar mamlakat o'ziga hosligining muhim qismi bo'lib, xalq aziz bo'lgan umumiy e'tiqod, ideal va maqsadlarni ifodalaydi. Ular ko'pincha davlat bayroqlari, madhiyalar va gerblar kabi belgilarda aks



etadi. Bu ramzlar odamlarda kuchli g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishi, ularga tegishlilik va umumiy maqsad tuyg'usini tarbiyalashi mumkin. Mening fikrimcha, milliy qadriyatlarni anglash va qabul qilish milliy o'zlikni anglashning mustahkam tuyg'usini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. O'ziga xoslik belgilari odamlarni birlashtirishga yordam beradi va ularga tegishlilik tuyg'usini beradi, bu esa yoshlarda axloqiy mansublikni mustaxkamlaydi va qadriyatlarimiz qadr topishi uchun juda zarurdir.

"РАЗВИТИЕ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ"

Туркменова Сурайё Рахимовна

Ташкентская область Город Чирчик Школа - 5

Учитель начальных классов

Аннотация: В данной статье отражены методы развития устной речи учащихся и технологии развития у них речевых навыков.

Ключевые слова: речевые развивающие игры, смысловые ассоциации, интерактивные методы, ассоциативные идеи, коммуникативная направленность

Они не только объясняют учащимся перевод слов, но и приучают их активно использовать эти слова в своей речи. В то время как словарь является строительным блоком языка, грамматика определяет вариации слов в предложении и способы их соединения. Кроме того, грамматика определяет модель построения языка.

Чем раньше ученик овладеет всеми грамматическими аспектами иностранного языка, тем быстрее он будет развиваться в речевом плане. Ошибка, допущенная учеником во время любого занятия, должна быть исправлена учителем. В тех случаях, когда ошибка не может быть исправлена вовремя, она отражается в памяти учащегося и приводит к тому, что другие учащиеся также говорят об ошибке по ее следам. Гораздо больше речевых ошибок можно исправить с помощью речевых развивающих игр, самооценки (саморазвития) и командных проектов (teamwork).

В таком сложном процессе, как повышение речевой активности и беглости речи учащихся, важное место занимает использование инновационных методов, интерактивных методов и информационных технологий. Совместная работа дает немедленный результат, повышая вовлеченность учащихся больше, чем традиционные занятия. В настоящее время все большую популярность приобрели "носители языка", то есть люди, для которых английский является родным языком, общаясь с ними, получая от них уроки и мастер-классы. Изучение языка вышло на новый уровень. Помимо различных приложений и программ, игр, их применение на уроках является весьма продуктивным методом. Каждый учитель выбирает методы и приемы, которые лучше всего подходят ему и ученикам. Например, в то время как фильмы и песни больше подходят для студентов из одной группы, такие игры, как "Kahoot", являются подходящим занятием для большинства студентов из другой группы. При этом важно вовремя заметить потенциал учащихся.

Нельзя обойти стороной и приемы повторения, особенно в развитии устной речи. Это могут быть дебаты на разные темы, перекрестные вопросы и ответы, а также наглядные материалы. В основе учебно-методических методов, направленных на создание смысловых ассоциаций, лежат идеи ассоциаций, которые выявляют связи в познавательной деятельности человека. Прежде всего, он включает в себя общую

стратегию в отношении коммуникативной направленности, понимает практическую цель обучения, то есть овладение языком как социальным явлением, служащим средством общения в устной (аудирование и говорение) и письменной (чтение и письмо) формах. Студент должен быть разносторонне развитым, обладать необходимой культурой, хорошей родословной и быть готовым к профессиональной деятельности. Педагог должен обеспечить воспитание образованной, социально активной личности, а это возможно только при улучшении качества образовательного процесса. Каждый учитель должен знать цели, систему обучения и приемы, входящие в комплекты, содержание учебного материала, уметь творчески использовать возможности обучения, воспитания и развития.

В процессе обучения речевой деятельности на иностранном языке материал всегда усваивается в определенных дозах. Каждая такая доза должна быть доведена до уровня мастерства. Для достижения этого уровня необходимо пройти определенные этапы освоения материала. Поскольку циклы поглощения дозы материала периодически повторяются, этапы также повторяются. Учитывая, что каждый этап имеет свою конкретную цель, критерием определения видов уроков можно считать цель данного этапа формирования речевой компетенции.

Содержание речи может быть выражено, как правило, через вспомогательный вопрос, картинку, а затем через узбекское предложение, текст или каким-либо другим способом, который должен быть озвучен самим учеником.

В этом случае читатели обычно не решают, о чем говорить. Это делает ученика с хорошим запасом языкового материала совершенно некомпетентным человеком, который не может получить удовлетворительного ответа, если во время внеклассных занятий человек задает ему элементарный вопрос или просто просит его что-то объяснить. Стоит также отметить, что занятия, посвященные обучению устной речи, недостаточно целенаправленны.

Занятия по формированию грамматически правильной речи имеют характер развивающей игры, которая проводится без наглядного материала или демонстрации. Ошибки в речи воспитанника нужно исправлять дружелюбно, вежливо. Повторять ошибку в речи ребенка ни в коем случае нельзя, допустимо повторять слова, в которых грамматическая форма правильная, развивающие игры, педагог обязан следить за речью ребенка и исправлять грамматические ошибки на протяжении всего урока или в ходе различных игр.

Особое внимание учитель должен уделять учащимся, чья речь плохо развита на уроке. К особо молчаливым, не желающим общаться, сдержанным ученикам следует подходить с особым вниманием.

Большое значение имеют интерактивные методы и дидактические игры, доступные во время обучения, правильное использование и успешная организация которых играет важную роль как средство активизации сознательной деятельности учащихся, овладения знаниями.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. О.Хошимов. И.Якубов. Методика преподавания английского языка.- Ташкент-2003.
2. Джалалов Дж. Методика преподавания иностранного языка. - Ташкент., 2012: - с.48.
3. Инновационные методы преподавания английского языка.
<https://fayllar.org/ingliz-tilini-oqitishning-innovatsion-usullari.html>
4. Культура речи преподавателя. <https://fayllar.org/oqituvchi-nutq-madaniyati.html>

РОЛЬ КНИГИ И ЧТЕНИЕ ЛИТЕРАТУРЫ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Рано Сериковна Дусенова

Ташкентская область Город Чирчик Директор школы -5

Аннотация: *повышение духовности, формирование читательской культуры среди молодежи, чтение книги ведет человека к духовному совершенствованию, его роль в становлении человека как всесторонне зрелой, совершенной личности неопределима. В частности, восточные мыслители в своих взглядах, идеях, произведениях дали ценную информацию по таким вопросам, как человеческое созревание, духовная зрелость, патриотизм, образование и воспитание.*

Ключевые слова: *духовность, молодежь, культура, чтение книг, Совершенная Личность, мотивы.*

Человек начинает получать воспитание, прежде всего, еще в утробе матери. В утробе матери он переживает период раннего развития, то есть становления человеком. Его становление человеком порождает самовоспитание. После рождения ребенка он получает первое воспитание от родителей, от своей семьи. Роль родителей, семьи в формировании воспитания у ребенка неопределима. Воспитание-это высшая ценность, которая показывает человеку, что он человек. В воспитании человека отражается его духовность, культура, мировоззрение. Достижение высоких высот в будущем также зависит от воспитания. А основой воспитания является семья. Родитель должен относиться к воспитанию ребенка не поверхностно, а уделять особое внимание воспитанию ребенка. В воспитании ребенка не так эффективно ставить его, быть строгим, наоборот, эффективнее воспитывать ребенка вежливо, ласково. Потому что не только хорошо сказанное станет понятным, но и результат будет положительным. Ребенок поймет, что такое патриотизм, гуманизм, добро и зло в семье. Воспитывая ребенка, родитель также должен обладать хорошим поведением. Если родитель сам по себе необразован, он никогда не сможет дать своему ребенку хорошее воспитание. Вот почему воспитание играет важную роль в воспитании ребенка. Ведь "птица делает то, что видит в гнезде". Одним словом, воспитание определяет человека таким, каким он будет в будущем.

В последующие годы в нашей стране масштабы работы по пропаганде культуры чтения среди молодежи повысились до качественного уровня.

В частности, постановлением президента Узбекистана от 13 сентября 2017 года "о программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и продвижению культуры чтения и чтения", постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 14 декабря 2020 года № 781 утверждена национальная программа развития и поддержки культуры

чтения на 2020-2025 годы. программа и ряд других документов служат приложением для развития отрасли.

Население также должно, прежде всего, обеспечить качественное издание книг, отвечающих духовно-просветительским, художественно-эстетическим требованиям молодежи, содействовать деятельности издательств и творческих коллективов, оказывать поддержку в издании литературы для детей, переводить лучшие образцы национальной и мировой литературы, повышать культуру чтения, оказывать помощь в организации чтения в отдаленных районах республики и по возрасту. развитие культуры населения, систематическое изучение уровня читательского и книжного интереса населения, предусмотрены такие актуальные задачи, как организация проектов и конкурсов, направленных на развитие культуры чтения.

Определены задачи по разработке системы оценки эффективности реализуемых мер по развитию читательского мастерства, внедрению таких рейтингов, как «лучший читательский район», «лучшая читательская махалля», «лучшее читательское учебное заведение» и другие.

Говоря о культуре чтения, в первую очередь необходимо будет дать молодежи информацию, понимание правил и видов чтения книг.

Чтение - сложный вид речевой деятельности, который имеет два аспекта: технический аспект - овладение навыками чтения и скорочтения и творческий аспект - выделение из текста необходимой информации.

По степени усвоения содержания читаемого источника выделяют следующие виды чтения: рецензируемое чтение - для получения общего впечатления; ознакомительное чтение - для понимания общего содержания; разделительное чтение - для глубокого понимания смысла.

Рецензируемое чтение обычно предшествует ознакомительному и обучающему чтению. Используется при необходимости ознакомления с содержанием книги, ее главами и параграфами, автором произведения.

В процессе рассматриваемого чтения обычно зачитываются титульный лист, оглавление, некоторые предисловия и предложения. Сама по себе эта информация поможет вам решить, в какой степени вам нужен этот ресурс

Ознакомительное (конкурсное) чтение используется для выделения тех или иных вопросов из нескольких источников, а также для сопоставления и сопоставления полученной информации, выработки собственного взгляда на данный вопрос.

Обучение чтению-активный вид чтения. Он используется, когда вы обращаете внимание, сосредотачиваетесь на информации и вдумчиво читаете. Предназначен для понимания главной мысли в тексте, ее цели, логики доказательств, поиска ответов на поставленные перед вами вопросы. Этот вид чтения требует последовательности в изучении материала (по абзацам, главам, частям), направляет на построение личного мнения о тексте, формирует умение критически воспринимать информацию.

Круг вопросов к порядку чтения научной литературы состоит в следующем. При этом учеба должна быть серьезной и вдумчивой.

Важно следующее. Такие как анализ прочитанного материала, определение сути непонятных терминов и понятий, поиск ответов на важные вопросы.

Воспитательная ценность книги в воспитании гармоничного поколения неопределима. Следовательно, именно чтение дает человеку знания и информацию, обогащает его духовный мир. Хорошая книга поможет найти ответы на самые сложные вопросы.

3) “Badoye' al-waqaye”. Zainiddin Mahmud ibn Abdiljamil Wasifi (1485-1551) translation into Central Asian Turkic by Ogahi the only copy made. Translation by decree of Muhammad Rahim Khan II done A unique copy is kept in the fund of the Russian Academy of Sciences¹³.

4) “Qobusname”. The moral and didactic work was dedicated to Gilonshah the son of the king of Western Iran, Kaikovus ibn Iskandar ibn Qabus ibn Vushmagir (1021-1087). Translation on the recommendation of Prince Muhammad Rahim Khan II was implemented in 1860. There is 3 copies of the manuscript¹⁴.

5) “Rawzat al-Safa'i Nasiri (third volume” The author of the work Rezaquli Khan Hidayat (died 1871). The work was translated in 1860-1861 by order of Khiva Khan Sayyid Muhammad Khan. The translation has a unique copy , which today is saved in the Institute of Oriental Manuscripts of the Russian Academy of Sciences¹⁵.

6) “Tabaqati Akbarshahi”. Nizamuddin Ahmad ibn Muhammad Muqim Hirawi's historical work that was classified in 1592. The translation was made according to the order of Sayyid Muhammad Khan. The manuscript is in a single copy has reached us. At the beginning of the work, Agahi writes that he started the translation during the reign of Sayyid Muhammad Khan, but soon after the khan died the translation remained

¹² Bartold V.V. Works. T.2. Works on individual problems of the history of Central Asia. - M., 1964. -p.57

¹³ National encyclopedia of Uzbekistan. Volume 1. T.; 2000.

¹⁴ Kaikovus Unsurulmaoli. "Qobusname" (in Uzbek). T.; 1994.

¹⁵ Mulla Olim Makhdum Haji. History of Turkestan. Karshi, "Nasaf" publishing house, 1992, p. 128.

unfinished. After coming to the throne Muhammad Rahim Khan II, he ordered to finish the translation. The writing of the translation in history can be considered as 1864¹⁶.

7) “Yusuf and Zulayha”. A poetic epic was written by Abdurrahman Jami. It was translated according to the order of Khiva Khan and poet Muhammad Rahim Khan II. The original one is stored in the Russian National Library. The translation ended in the month of Sha'ban 1285 Hijri year(an Islamic year)/AD in November-December 1868. There are 7 manuscripts of the work.

8) “The king and the dervish”. One of the works of Badriddin Hilali (15th century). The verse translation was made by the decree of Muhammad Rahim Khan II. The original copy is kept in the National Library of Russia. Two of the work the manuscript has been preserved.

Like characters Alexander, Bahram, Farhad and Shirin, Layli and Majnun, Vomiq and Uzro in Eastern literature, Ogahi's translation of "Yusuf and Zulaiho" can be mentioned a lot. The narration about Yusuf peace be upon him, who has no equal in beauty is reflected first time in the book of the Jewish Torah. This is also in the Holy Qur'an, there is a separate chapter dedicated to the Prophet. But these narratives, which originally appeared as a religious myth, later became a base for creating various poetic and prose works. As a result, the fiction of "Yusuf and Zulayho" was the first to be written by the greatest Persian poet of the 10th and 11th centuries Abulqasim Firdavsi.

USED SOURCES AND LITERATURE:

1. Dolimov S. Ogahi's life and work. - T., 1963.
- 2.. Bartold V.V. Works. T.2. Works on individual problems of the history of Central Asia. - M., 1964. -p.57
3. National Encyclopedia of Uzbekistan. Volume 1. T.; 2000.
- 4.Kaikovus Unsurulmaoli. "Qobusname" (in Uzbek). T.; 1994.
- 5.Mulla Olim Makhdum Haji. History of Turkestan. Karshi, "Nasaf" publishing house, 1992, p. 128.Notice. Selected works. T.;
6. Uzbekistan is an artistic state Literary Publishing House, 1958. Preparer for publication: S. Dolimov, editor R.Majidi.

¹⁶ Notice. Selected works. T.; Uzbekistan is an artistic state Literary publishing house, 1958. Preparer for publication: S. Dolimov, editor R.Majidi.

**BO'G'USI MUSIQA FANI O'QITUVCHILARINI SURXON MILLIY
CHOLG'ULARIDA IJROGA O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI**

*Ilmiy rahbar: Avloqulov Dilovar
Mahmudova Nilufar Egamberdi qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Musiqqa ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Har bir xalqning o'z kuyi, milliy ohangi bor. Shu bilan birga asrlardan beri meros bo'lib qolgan, qadrdon cholg'ulari musiqqa asboblari bor. San'atni sevuvchi shaxs bor ekan bir navo, kuy, ohang yaratish uchun avvalo bir yo'nalish bir cholg'uni tanlaydi. Surxon vohasida asrlar davomida ota-bobolardan meros sifatida o'tib kelayotgan qadimiy cholg'ular bor. Masalan: Changqovuz (changqo'biz), sibizg'a, do'mbira.

Kalit so'zlar: Changqovuz, do'mbira, sibizg'a, voha, oktava, orkestr

O'zbek xalqining boy musiqqa merosini o'rganish va uni kelajak avlodga yetkazish, targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari va mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i zarur. Chunki bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosimiz ustozdan – shogirdga bevosita o'tishda tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tash bilan birgalikda, o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar. Bugun esa san'at dargohiga ilk bor qadam qo'ygan yosh yigit va qizlar o'z qiziqishlari bilan musiqqa san'ati sirlarini astoydil o'rganyaptilar.

Shu bilan birga yosh musiqqa o'qituvchilarini milliy va Ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, milliy cholg'ularimizni yana asrlar davomida yashab kelishiga musiqqa ustozlarining xizmatlari beqiyos. Surxondaryo va Qashqadaryo bu ikki zaminning vujudida bir. Kuyi, to'yi, o'lani bir hamda musiqqa cholg'ulari ham. Vohaga xos bo'lgan milliy cholg'ular bilan quyida tanishamiz:

Changqo'biz, changqovuz — til-chali cholg'u asbobi. Plastinkasimon va yoysimon turlari bor. Suyak, yog'och, qamish, g'arov, metall dan yasaladi. Osiyo (Sibir, Uzoq Sharq, O'rta Osiyo), Af-rika va Yevropa xalklarida turli nom-da tarqalgan bo'lib, musiqiy folklor qatlamiga mansub cholg'udir.

Changqo'biz tishlarga yaqin ushlab yoki bosib turib, tilchasi (turiga qarab) unga bog'langan ip yorda-mida tortib yoki qo'l barmoklari (odat-da, ko'rsatgich barmoq) bilan tirnab chalinadi. Undan ma'lum balandlikdagi doimiy bir ovoz va shu ovoz oberton-laridan og'iz artikulyatsiyasi yordamida muayyan ohanglar chiqariladi.

Ovozning balandpastligi og'iz bo'shlig'ining kattakichik ochilishiga, cholg'u tilchasining uzun va qalinligiga bog'liqdir. Changqo'biz o'ziga xos past ovozi, nisbatan tor (oktava doirasidagi) diapazoni bilan ajralib turadi. O'tmishda o'zbeklarda suyak changqovuz («Alpomish» dostoni) va temir changqovuz turlari bo'lib, asosan, xotin-qizlar tomonidan qo'llanilgan.

Hozir O'zbekistonda, asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, shuningdek, Samarkand va Buxoro viloyatlarida temir changqovuz tarqalgan. 1990-y.lardan boshlab ba'zi folkloretnografik jamoalar tomonidan keng ishlatiladigan bo'ldi. Changqo'biz ma'lum Temir changqo'biz. marosim bilan bog'liq bo'lmay, unda oddiy (ba'zida badiha uslubidagi) kichik kuylar («Changqovuz kuy» yoki «Changqovuz chertit») chalinadi. Shuningdek, changqovuz da turli hayvonlarning ovozlari o'xshatmalar qilinadi. Sibizg'a, sibiziq, cho'pon nay — 1) tilchalipuflama o'zbek xalq musiqa cholg'u asobi. Hozirda, asosan, cho'ponlar orasida tarqalgan. Qamishdan yasaladi. Diametri, odatda, 5–6 mm, uz. 140–150 mm bo'ladi. Ustki tomonida, puflanadigan uchining 10–15 mm pastrogida tilchasi, undan quyida uchta teshikchasi bo'ladi. Diapazoni, odatda, seksta. S.da ko'proq oddiy cholg'u mashqlar, xalq qo'shiqlari kuylari chalinadi; 2) qozoq puflama musiqa cholg'usi. Uzun (80—90 sm), to'g'ri ushlab chalinadigan nayning turi. 5—6 barmoq teshiklari mavjud. Diapazoni 1,5 oktava atrofida. Professional cholg'ular qatoridan o'rin olgan qozoq S.sida rivoyat kuylar, xalq lirik qo'shiqlarining kuylari ijro etiladi.[1]

Do'mbira (tanbura so'zidan) — torli chertma xalq musiqa cholg'usi. O'zbek va qozoq kabi Do'mbira turlari mavjud: 1) o'zbek Do'mbirasining dastasi silliq, pardalari belgilanmagan bo'ladi. Cholg'uning asosiy qismi (kosaxona va dasta) o'rik, tog'olcha yoki archa daraxtidan yaxlit tarzda, kosaxonasi o'yib ishlanadi. Pay torlari kvarta, kvinta, ba'zida oktava oraligida sozlanadi. Diapazoni taxminan 2 oktava bo'ladi. Asosan Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari, shuningdek, boshqa viloyatlarning ayrim tumanlarida tarqalgan. Mazkur cholg'udan baxshilar xalq dostonlarini, termalarni kuylashda jo'rovoz sifatida, do'mbirakashlar esa „Cho'poncha“, „Do'mbira kuy“, „Baxshi kuy“, „Kelinoy“, „Qo'ng'iroti“ kabi Do'mbirasi kuylarini ijro qilishda foydalanadilar. Tashqi ko'rinishi, tuzilishi va tembri Do'mbirasiga o'xshash bo'lgan cholg'u sozlari oltoylarda (topshur), tojiklarda, afg'onlarda (do'mbiroq) mavjud; 2) qozoq do'mbirasi ning 2 asosiy turi mavjud. G'arbiy Qozog'iston D.si noksimon, kosaxonasi o'yilgan, uzun va tor dastasida 13—14 parda bog'lanadi. Unda asosan Qo'rmang'oz, Dauletkerey, Bayserke, Tattimbet, Qazang'ap kabi qozoq kuyshilari bastalagan cholg'u kuylari ijro etiladi. Sharqiy Qozog'iston Do'mbirasi uchburchak yoki kurakcha shaklida bo'lib, uning nisbatan keng va kalta dastasiga 7—9 parda bog'lanadi. Ko'prok, oqinpar tomonidan jo'rovoz soz sifatida foydalaniladi. Qozoq Do'mbirasi ijro usullarining xilmaxilligi, ifodaviy imkoniyatlarining kengligi tufayli qozoklarning eng sevimli xalq hamda professional (18-asrdan) musiqa cholg'usiga aylangan. 1930-yillardan o'zbek va qozoq Do'mbirasining qayta ishlangan turlari (prima, alt, tenor, bas, kontrabas) xalq cholg'ulari orkestrlari tarkibiga kiritildi.

Musiqa darslarini tuzish texnikasida innovatsion usullarni qollash uslubi

Musiqa darslarini tashkillashda ham oz samarasini korsatadi.

Talim muassasalarida bolalar bilan ishlash jarayonida ularga yangicha metodlar, yangicha uslublar orqali dars jarayonlarini tushintirib borish, darsning unumdorligini yanada oshiradi.

Shu qatorda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ayni qól keladigan uslub desak ham mubolag'a bólmaydi.

Darsni tashkillashda texnologik óyinlardan foydalanish: masalan ritmik óyinlar. Bunda óquvchilarga malum bir musiqa ostida ritmga tushish xarakatlari órgatiladi.

Yoki biror bir mavzuni tushuntirishda yengillik olib kirish, yani óquvchilarga aynan kim haqida gapirayotkanimizni kórsatish, bror kompozitor haqida gapirayotkanimizda uning rasmi kórinishini monitor yordamida bolalarga korsatish, ularni xotirasidan yanada chuqurroq órin olishini ta'minlaydi.

Shuningdek dars jarayonlarini prezentatsiya kórinishida olib borishimiz ham mumkin. Yani, mavzuga doir malumotlar, videoroliklar, rasmlar xamda musiqa yoki kuylar orqali yanada jonliroq dars jarayonini olib borish imkoniyati mavjud. Shu davrgacha ótib kelingan klassik darslar va innovatsion texnologiyalardan foydalanib olib borilgan darslar órtasidagi farq katta. Darsni bolalarga kórsatib olib borish shunchaki gapirib olib borishdan kóra ancha samaraliroq. Shunindek óquvchilarni etiborini tortish osonroq bólad, ular dars davomida zerikib qolmaydilar va aksincha qiziqishlari ortadi. Bundan tashqari, dars davomida musoboqalar ótkazish, mavzuni yanada chuqurroq tushunilishiga olib boradi. Aynan innovatsion texnologiyalar, ochiq darslar olib borishda ham eng yaxshi uslub desa ham bólad. Istisno tariqasida shuni qóshib qóysa ham boladiki, masalan dars davomida bolalarni birdaniga hamma cholg'u asboblari bilan tanishtirish anchagina mushkul ish. Ayniqsa órta ta'lim maktablarida. Sababi maktablarda sanoqli cholg'u asboblari mavjud bo'ladi yoki bazi bir cholg'u asboblarini topishni o'zi mushkul ish. Aynan shunday holatlarda, internet orqali tanishtirmoxchi bo'lgan cholg'u asbobimizni yuklab olib, monitor orqali bolalarga ko'rsatish, uning oxangini eshittirish orqali hattoki bizni mamlakatimizda uchratish mushkul bo'lgan cholg'u asboblari bilan ham tanishtirib chiqish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu shunchaki bir misol tariqasida aytilgan jumla bo'ldi.

Dars davomida har bitta darsga shu yo'sinda yondoshilsa o'qituvchi uchun ham dars olib borish jarayoni yengillashadi, o'quvchilar uchun ham darsni anglash osonlashadi.

Bunday texnologiyalar hozirgi kunda yangi bo'lishi mumkin. Lekin bora bora zamon rivojlovi bilan birgalikda rivojlanib bunday texnologiyalardan foydalanish oddiy holga aylanin qoladi.

Shunday ekan har bir pedagog faqatgina faniga oid bilimlardan tashqari innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullarini, yangi-yangi metod qóllanmalarni ham órganishi zarur bólad.

Har bir pedagog, har bir óquvchini vaqtini olayotgani uchun nafaqat davlat oldida balki óz vijdoninoldida ham javobgardir. Shunday ekan qaysi fandan bólmasin

óquvchilar bilan ótkazayotgan vaqtimizni imkon boricha samarali va mazmunli ótkazishimiz zarur. Buning uchun, aynan hozrgi vaqtda ya'ni pedagoglikka tayyorgarlik jarayonida vaqtimizni shunchaki ótkazmasdan, taffakur qilgan holda, kelajakdagi mas'uliyatimizni óylagan holda har bir daqiqani qadriga yetib, ózimizni yanada rivojlantirishimiz maqsadga muvofiq bóladi.

XULOSA

Yuroridagi ma'lumotlardan kelin chiqqan xolda, xulosa órnida shuni aytishimiz mumkinki, zamon zayli bilan rivojlanib borayotgan texnikalarning órni, ilm-fan taraqqiyotida ham katta órin egallab kelmoqda. Innovatsion texnikalardan foydalangan xolda, dars jarayonlarini olib borish, yanada samarali bólishini ta'minlaydi.

Aynan musiqa darslarida bunday texnologiyalardan foydalanishda darslar yanada qiziqarliroq kechadi hamda óquvchilarning bilimga bólgan ishtiyoqini oshiradi. Bunday innovatsion texnologiyalar bilim olish jarayonini mukammallashtirayotgani bois, ushbu faoliyat dunyo ta'lim muassasalaridan óz órnini olmoqda.

Istisno tariqasida aytib ótish lozimki, texnologiyalar rivojlanayotgan bunday davrda, qaynday soha, qanday fan bo'yicha ta'lim olmaylik, innovatsion texnologiyalar bo'yicha ham o'z bilimimizni oshirib borishimiz foydadan xoli bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

- 1.Tolipova Sh. "Pedagogik texnologiyalar- dóstona muhit yaratish omili"
- 2.Davletshin M. G. "Zamonaviy maktab óquvchisining psixologiyasi"
- 3.Sharipova G. "Musiqa óqitish metodikasi"
- 4.Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T., "Sharq" nashriyoti)
- 5.Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi
- 6.Akvileva G.N., Klitrina Z.A. «Metodika prepodavaniya yestestvoznaniya». Moskva, Vados.
- 7.Geronimus T., Uchebnik malenkiy master texnologiya.

INTERNET SAYTLARI:

1. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. w.w.w. /pedagog/ uz.
3. www. edu. Uz
4. e-library.namdu-uz
5. marifat.uz
6. bestpublication.uz.

BOLA RIVOJLANISHIDA MUHITNING TA'SIRI

Ilmiy rahbar: Ermatova Mehriniso

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qutuvchisi

DTPI Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

2-bosqich 2-MT-22-guruh talabasi

Asatova Sevinch

Annotatsiya: *Bolalarning rivojlanishi bu eng murakkab jarayon hisoblanadi. Bola rivojlanishida turli xil omillar ishtirok etadi. Bulardan eng asosiysi muhit hisoblanadi. Muhit ham o'z o'rnida bir necha omillarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *Muhit, tabiiy muhit, oila muhiti, ijtimoiy muhit, bola rivojlanishi;*

KIRISH:

Inson rivojlanishi bu murakkab jarayon hisoblanadi. Inson rivojlanishi asosan tashqi va ichki kuchlar ta'sirida bo'ladi. Tashqi ta'sir omillariga tabiiy va ijtimoiy muhit kiradi. Ichki omillarga biologik va irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlari foydalaniladi. Bularga (o'yin, sport, mehnat va hokazo.) muloqot (Ota-ona, do'stlari, tengdoshlari) misol bo'ladi. Bola rivojlanishida asosiy vosita bu muhit hisoblanadi. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuyi tushunildi. Muhit ham bir necha turlarga bo'linadi.

-Tabiiy muhit.

-Oila muhiti.

-Ijtimoiy muhit.

Tabiiy ya'niy geografik muhit bu insonning hayot tarzidagi xarakteri va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Masalan, Janubda yashaydigan inson, Shimolda yashaydigan insondan ko'rinishi, xarakteri va dunyoqarashi bilan ajralib turadi.

Oila muhiti - bu muhit Inson shakllanishiga muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib avvalo Ota-onasini, bobo-buvisini ya'niy oila a'zolarini ko'radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa axloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi. Bola nihol kabidir uni qanday parvarish qilsak mevasini ham shunday olamiz, daraxtning hosildor bo'lib yetishishi eng avvalo bog'bon parvarishiga bog'liqdir. Shunday ekan bolalarni hali shakllanmasdan ijtimoiy muhitga kirmasligidan oilaviy sharoitda unga to'g'ri tarbiya berishimiz kerak bo'ladi.

Ijtimoiy muhit - ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy aloqa ya'niy

insonlararo o'zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi,kerakli tarbiya va bilimlarni egallaydi.Jamiyatda ma'naviy muhit yaxshi,adolat ustuvor bo'lsa,inson faoliyatiga ijobiy ta'sir qilishi va aksincha holatlarda salbiy ta'sir ko'rsatadi.Demakki,insonning kamolotga yetishiga ta'lim-tarbiya,muhit va insoniyat muhim hisoblanadi.Nega bugungi kunda o'tmishda yashab o'tgan Imom Al Buxoriy,Beruniy,Alisher Navoiy,Zamahshariy,Farobiy va G'azzoliy kabi olimlarga o'xshagan insonlarni uchratmaysiz.

Chunki ularning irsiyati toza,Ota-onalari solih va soliha bo'lganlar,ular yashagan davrda ilm-ma'rifat va taraqqiyot o'zining cho'qqisiga chiqqan,ya'ni muhit yaxshi bo'lgan va eng asosiysi esa ajdodlarimizning ta'lim-tarbiyasiga ma'sul bo'lgan Ota-onalar va ustozlar o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishdan,tarbiyalarida nuqson bo'lmagan.Agar biz ham farzandlarimizning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillardagi nuqsonlarni bartaraf etsak,muhitni yaxshilasak albatta kelajak avloddan Buxoriy va Farobiya o'xshagan buyuk olimlar yetishib chiqadi.

XULOSA:

Xulosa qilib shuni aytish joizki barkamol shaxsni shakillantirish,kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni to'g'ri tarbiyalamog'imiz kerak.Bola rivojlanishiga qaysi ta'sir muhimroq,qaysisi yetarli va qaysisi yetarli emas har birini o'rganib chiqishimiz kerak.Bola rivojlanishida qaysi tomonlama bo'shliq bo'lsa uni kerakli ma'lumot Ota-onaning to'g'ri maslahati bilan to'ldirish kerak.Zero kelajak yoshlar qo'lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T.Nishanova (Rivojlanish psixologiyasi,Pedagogik psixologiya).
2. Xasanova.O.U. (Maktabgacha ta'lim pedagogikasi).

BOBURIYLAR DAVRIDA HINDISTON VA TURKISTON ALOQALARI (XVI – XVII ASRLAR**Eshonqulov Rustam Abdullo o'g'li***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi***Boltayev Pinali Pirxon o'g'li***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi***Qodirov Abulfayz Axtam o'g'li***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Hindistonda Boburiylar sulolasi hukmronligi davrida Turksiton bilan olib borilgan diplomatik aloqalari, XVI - XVII asrlarda boburiy podshohlar bilan temuriylar o'rtasida olib borilgan diplomatik munosabatlar haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *Hindiston, Markaziy Osiyo, Turkiston, Richard Fols, Toj Mahal, Samarqand, Shoh Jahon, Balx, Abul Fazl, Akbarshoh.*

Аннотация: *В данной статье приведены сведения о дипломатических отношениях с Туркситоном в период правления династии Бабур в Индии, дипломатических отношениях между царями Бабура и Тимуридами в XVI-XVII веках.*

Ключевые слова: *Индия, Средняя Азия, Туркестан, Водонад Ричард, Тадж-Махал, Самарканд, Шах Джахан, Балх, Абул Фазл, Акбар Шах.*

Annotation: *This article provides information about the diplomatic relations with Turksiton during the reign of the Babur dynasty in India, diplomatic relations between the Babur kings and the Timurids in the 16th - 17th centuries.*

Keywords: *India, Central Asia, Turkestan, Richard Falls, Taj Mahal, Samarkand, Shah Jahan, Balkh, Abul Fazl, Akbar Shah.*

Hindiston yarim oroli eng qadim zamonlardan beri dunyo tizimining bo'linmas bir qismi bo'lib kelayotganligi hammaga yaxshi ma'lum. Ushbu mintaqa asosan shimoli-g'arb tomonidan, ya'ni Hindiqush tog' tizmalari osha Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston bilan bevosita aloqada bo'lib kelganligi ham hech kimga yangilik emas. Biz mavzu qilib olgan davr ham ana shu aloqalarning bir qismini tashkil etadi. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, Hindiston va Turkistonning XVI-XVII asrlardagi tarixiga bag'ishlangan qo'lyozma manbalar va keyinchalik yozilgan bosma manbalar juda ko'p va xilma-xildir¹⁷. Lekin, shunga qaramay, bu ikki mintaqada yashovchi xalqlar o'rtasidagi aloqalarga bag'ishlab yozilgan ilmiy tadqiqotlar kamchilikni tashkil qiladi. Ayniqsa, ushbu mavzuda o'zbek tilida hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan,

¹⁷ Xayrullayev M.M, O'zbek diplomatiyasi tarixidan, Toshkent 2003, B – 104-105.

tarixni xolisona ifoda etuvchi ilmiy ishlar deyarli yo‘q desa ham bo‘ladi. Ana shu holatni nazarga olgan holda, biz XVI-XVII asrlarda, ya‘ni Hindistonda boburiylar sulolasi xukmronlik qilgan davrda, Turkiston bilan olib borilgan aloqalarni yoritishga harakat qildik¹⁸.

Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo o‘rtasida qadimdan davom etib kelayotgan aloqalar aynan Hindistonda temuriylar sulolasining davomchilari bo‘lgan boburiylar xukmronlik qilgan davrda o‘z cho‘qqisiga yetdi deb ayta olamiz. Chunki xuddi shu davrga kelib ikki mintaqqa o‘rtasidagi madaniy yaqinlashuv jarayoni tezlashdi va har jihatdan bu o‘zaro qo‘shiluv yangicha ijobiy sintezni vujudga keltirdi. Boburiylar hukmronligiga qadar Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi madaniy aloqalar va o‘zaro ta‘sir qilish hech davrda shunchalik ko‘zga tashlanarli darajaga yetmagan edi.

Ushbu holatni amerikalik tarixchi olim Richard Fols shunday ifodalaydi: “O‘sha davrda musulmon Osiyosi ko‘p jihatdan bir dunyo edi”¹⁹. Bu yerda u islom madaniyatining birlashtiruvchi kuch ekanligini ta‘kidlaydi. Albatta, bu fikrni inkor etmagan holda, Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston xalqlarining o‘ziga xos madaniyati, milliy an‘analari, san‘ati, adabiyoti ham ikki mintaqqa xalqlari aloqalari jarayonida bir-birlariga o‘zaro ta‘sir qilib, boyitganliklarini alohida qayd etish lozim. Lekin yana shuni ham ta‘kidlash kerakki, bu borada hali ko‘p masalalar ilmiy jihatdan to‘liq o‘rganilmagan. Masalan, Markaziy va Janubiy Osiyodagi mamlakatlarda musulmon jamiyatlari o‘rtasidagi umumiylik qay darajada bo‘lgan? Ular orasidagi o‘zaro ta‘sir qanchalik faol bo‘lgan va ular o‘zlari yashab turgan mamlakat chegaralarini jug‘rofiy jihatdan hozir biz bilganchalik ko‘ra olganlarmi? Ana shunga o‘xshash ko‘pgina savollar o‘z tadqiqotchilarni kutmoqda.

Shularni hisobga olgan holda quyida Turkiston va Hindiston xalqlari o‘rtasida XVI-XVII asrlarda olib borilgan aloqalar xususida so‘z yuritilar ekan, ular orasidagi umumiy tomonlari va farq qiladigan jihatlari hamda ikkala tomonni madaniy jihatdan bog‘lovchi omillar haqida to‘xtalib o‘tishga harakat qilinadi. Boburiylar sulolasiga mansub hukmdorlar to‘g‘risida so‘z borar ekan, ularning Turkistonni o‘zlarining “haqiqiy” ona yurtlari va temuriylardan meros qolgan hududlar deb qarashlariga ham ahamiyat berish joiz bo‘ladi. Hindiston yarim orolida, umuman olganda, qariyb ikki asr (1526-1707)²⁰, ya‘ni Hindistonda musulmonlar hukmronlik qilgan eng diqqatga sazovor davrda, davlatni boshqargan birinchi olti boburiy sultonlarning har biri ona yurtlari, ularning ko‘pchiligi bu yerlarni hech qachon ko‘rmagan bo‘lsalar-da, Turkiston bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatish his-tuyg‘ularini namoyish etib kelganliklarini ko‘ramiz. Ma‘lumki, Temuriylar sulolasining eng so‘nggi avlodlari bo‘lgan boburiy hukmdorlar Hindiston yarim oroliga kelib o‘z hokimiyatlarini o‘rnatdilar.

¹⁸ Osha joyda. B – 105.

¹⁹ Richard S Foltz, Mughal and Central Asia. Oxford 1998. p. XX III.

²⁰ O‘sha asar. P XXIII

Boburiy sultonlar davrida Turkiston hududlaridan Hindistonga keng miqyosda turli soha vakillarining, ayniqsa, madaniyat sohasiga aloqador kishilarning ko'chib o'tishi turkiy xalqlar madaniyati bilan yerlik xalqlarni tanishtirdi va shu madaniyatning Hind yerlarida yoyilishiga ham sabab bo'ldi. Turkistonliklar Hindistonga nafaqat siyosiy, ma'muriy va harbiy tomondan, balki madaniyat (rassomchilik, me'morchilik, adabiyot, she'riyat va h.k.) sohalarida ham katga ta'sir ko'rsatganlar. Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, Hindistonda eng mashhur tarixiy obida Toj Mahal, ko'pchilik olimlarning ta'kidlashicha, Samarqanddagi Amir Temur maqbarasi - "Go'ri Amir"ga to'g'ridan to'g'ri taqlid qilib solingan. Toj Mahalni qurdirgan Shoh Jahon o'z "ona vatani" bo'lgan Turkistonni qaytadan qo'lga kiritish umidida yashagan. Hatto u 1646 yilda Balx viloyati orqali bu tomonga harbiy yurishni amalga oshirishga ham urinib ko'rgan.

Shoh Jahonning Balxga yurishi to'g'risida Boburiylarga tegishli ko'pgina maktublarda va boshqa hujjatlarda Turkiston "ajdodlarimizning qabrlari bor joy" deb qayd qilingan²¹. Hattoki, otasining ko'p sohalaridagi siyosatining teskarisini qilgan Avrangzeb ham, boburiylarning Turkistonga nisbatan bildirgan o'y-xayollariga sodiqqolgan. Bunday misollar XVI-XVII asrlarda turli to'siqlarga qaramasdan, Turkiston va Hindiston o'rtasida muntazam aloqalar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. XVII asrga tegishli manba bo'lgan "Muzakkir-i-as'hob"da qayd qilinishicha, boburiylarning so'nggi avlodlari, o'z bobolari Jahongirshoh qilganidek, Samarqandga "Go'ri Amirni" ta'mirlash uchun pul va ustalarni yuborganlar"²². Boburiylarning Markaziy Osiyo, xususan, Turkistonga bo'lgan bunday munosabatlarining sababini amerikalik olim Richard Fols shunday sharhlaydi: "Mo'g'ul imperatorlarining o'z "ona yurtlari" bo'lgan Markaziy Osiyoga nisbatan ko'rsatgan sog'inch hislarini ifoda etishlariga, ular o'zlarini "Hind" dunyosining bir bo'lagi deya olmasliklari emas, balki yo'qotgan dunyolarining markazi, ya'ni nafaqat Hindistonni, balki Eron, Suriya, Anatoliya va ichki Osiyoning dasht yerlarini ham o'z ichiga olgan Temur imperiyasining gullab-yashnagan poytaxti - Samarqandni yo'qotganliklari sabab bo'lgan, deb o'ylaymiz"²³.

Haqiqatan ham Temur avlodlari bo'lgan boburiy sultonlar Turkistonni o'zlariga boshqarish uchun meros bo'lib qolgan dunyo deb hisoblaganlar. Masalan, Bobur Hindistonda o'z hokimiyati ni o'rnatgandan so'ng, u yerda doimo yashab qolish niyati yo'q edi, balki u o'z davlatini Temur bobosiga o'xshab Samarqanddan turib boshqarishni xohlar edi. Boburning vafotidan keyin, Humoyun va undan keyingi avlodlar nihoyat o'zlarining Hindiston sultonlari sifatidagi mavqelarini tan olganlar.

²¹ Nizomiddinov I.Y XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari. Tosh., FAN, 1966. 53-bet.

²² Muhammad Hadi "Maliho" Samarqandiy, Muzakkir-i-As'hob. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondi. № 4270. 234-bet.

²³ Richard S Foltz, Mughal and Central Asia. Oxford 1998. p. XX IIX.

Lekin kelib chiqishi, qaysi sulolaga mansubligi juda ham katta ahamiyat kasb etgan dunyoda, Temuriylar sulolasining vakillari bo'lgan boburiy sultonlar Hindistonda mustahkam o'rnashib olsalar-da, o'zlarining Turkistonga bo'lgan intilishlarini hech to'xtata olmaganlar.

Abul Fazl Akbarni "Ko'ragon oilasining faxri" va "Temur urug'ining chirog'i "chirog'-i-dudmon-i- Sohibqiron»²⁴ deb ataydi. Jahongir Kobulda, Boburning maqbarasi yonida, o'z nomi va Temurdan keyingi ajdodlarining nomlari o'yib yozilgan toshni o'rnatishni buyurgan edi²⁵. Amir Temur siymosi barcha Boburiy sultonlar uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Temur shaxsiyatiga, uning yurishlariga bag'ishlangan kitoblar doimo ularning hamrohi bo'lganligi bizga manbalardan ma'lum. Masalan, Jahongir va Shoh Jahon Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarini qayta-qayta o'qib yurganlar. Boburiy sultonlar Hindistonda o'z faoliyatlari davomida (davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda va h.k.) ko'pincha Temuriylar davridagi qonun-qoidalar, an'analar, rasm-rusumlarga amal qilganlar. Boburiylar Hindistonda o'z hukmronligini mustahkam o'rnatib olganlaridan so'ng, tashqi dunyo hukmronlari ularni Temuriylar xonadoni davomchilari sifatida tan olishni lozim topdilar.

Masalan, Eron shohi Abbos Jahongirga yo'llagan rasmiy maktubida "ushbuni Ko'ragon taxtida o'tirgan zotga va Temur tojining merosxo'riga yo'llayman"²⁶, deb yozadi va yana bir joyda Hindiston elchisi Xon A'lamga imperatorga sovg'a tariqasida Isfahondan Temur, uning o'g'illari va lashkarboshi larining To'xtamishxon bilan olib borayotgan janggi tasvirlangan noyob san'at asarini olib ketishga ruxsat beradi²⁷. Ikki mintaqa xalqlarining XVI-XVII asrlardagi aloqa larida islom dinining ham birlashtiruvchi roli borligini inkor qilib bo'lmaydi. O'sha davrda Hindiston musulmonlari Turkistonni eng avvalo diniy ilmlar markazi sifatida hurmat qilganlar, ayniqsa, Buxoro madrasalarining dovrug'i Hind musulmonlari orasida keng yoyilgan. Shu sababdan bir qancha hind musulmonlari Buxoroda tahsil olganliklari ma'lum. Yuqorida bayon qilingan fikrlar va bir qator manba va adabiyotlardan olingan ma'lumotlar XVI-XVII asrlarda boburiylar davridagi Hindiston va Turkiston o'rtasida diplomatik, harbiy, savdo va madaniy aloqalar ancha faol olib borilganligidan darak beradi. XVI asr oxirlarida Movarounnahr, Hindiston va Eronda kuchli feodal davlatlar tashkil topadi. Hindistonda boburiylar sulolasining eng zabardasti buyuk Akbar saltanat egasi bo'lganda (1556), Movarounnahrda shayboniylar sulola-sining so'nggi tadbirkor namoyandasi Abdulla II hokimiyatni o'z qo'liga oldi (1557).

²⁴ Abul Fazl, "Allami" Akbar-nama, ed. Abd al-Rahim, 3 vols, Tr Henry Beveridge, (reprint Low Price Publ, Delhi, 1993)

²⁵ Shan Nawaz Khan and Abd-Hayy. Ma-athir al-ulam, fr Henry Beveridge, Calcutta 1941-1942. p. 97.

²⁶ Tuzuk-I Jahangiri, tr A.Rogers ND 978 и p. 1956 T/. P 112.

²⁷ McChesney R.D. Wagf in Central Azia, Princeton Univ. Press, 1991. p. 110.

XULOSA

Boburiy hukmdorlar turli sabablarga ko'ra Turkistondan Hindistonga kelib qolgan va davlat ishlarida yoki boshqa sohalarda katta tajribaga ega bo'lgan bilimli kishilarga ishonch bildirib, yuqori lavozimlarga, harbiy qo'mondonlik vazifa lariga tayinlanganlar va ular mehnati va sadoqatini yuqori baholaganlar. Yaxshi xizmatlari uchun ularga katta mukofotlar, yerlar hadya qilganlar va shu bilan birga ular yo'l qo'ygan ba'zi xatolarni ham kechirib ketganlar. O'rta Osiyodagi tasavnuf oqimidagi bir qancha oilalar boburiylarning Naqshbandiya tariqatiga mansub ekanlik laridan foydalanib, ko'pchiligi Hindistonga kelgan va saroy xizmatiga olinganlar. Ulardan biri bo'lgan Sharafiddin Samarqandiy Akbarshoh xizmatida ishlagan, lekin ikki marta isyonda ishtirok etganligi sababli Bengaliyada hayotidan ajralgan,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abul Fazl, "Allami" Akbar-nama, ed. Abd al-Rahim, 3 vols, Tr Henry Beveridge, (reprint Low Price Publ, Delhi, 1993)
2. Muhammad Hadi "M aliho" Samarqandiy, Muzakkir-i-As'hob. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondi. № 4270. 234-bet.
3. Firdavs Ulug'bek o'g, S. (2023). SALJUQIYLAR SULOLASINING O'RTA OSIYODA TUTGAN O'RNINI VA SIYOSIY TARIXI HAQIDA. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 3(1), 71-76.
4. McChesney R.D. Wagf in Central Azia, Princeton Univ. Press, 1991. p. 110.
5. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 118-121.
6. Nizomiddinov I.Y XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo va Hindiston munosabatlari. Tosh., FAN, 1966. 53-bet.
7. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).
8. Sattorov, F., Abdiyeva, O., & Boboraxmatova, D. (2022). MIRZO ULUG'BEK TARJIMAI HOLI VA ULUG'BEK QABRINING OCHILISHI VA UNING TAVSIFI MASALALARI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(11), 259-270.
9. Richard S Foltz, *Mughal and Central Asia*. Oxford 1998. p. XX III.
10. Tuzuk-I Jahangiri, tr A.Rogers ND 978 и p. 1956 T/. P 112.



11. Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG'LIQ IJTIMOYIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
12. Xayrullayev M.M, O'zbek diplomatiyasi tarixidan, Toshkent 2003, B – 104-115.
13. Shan Nawaz Khan and Abd-Hayy. Ma-athir al-ulama , fr Henry Beveridge, Calcutta 1941-1942. p. 97.

ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF THE COLD CONDITIONING SYSTEM ON THE QUALITY INDICATORS OF GRAIN PRODUCTS.

Akramova Guklhayo

PhD student in Andijon Machine Building Institute, Uzbekistan

Undoubtedly, bread is the main food product of the Uzbek people and other peoples of Central Asia. For this reason, much of our arable land is grown in wheat. It is necessary to provide the agricultural enterprises of the President of the Republic of Uzbekistan and the Cabinet of Ministers with modern technologies for the development of agriculture and agro-industry in our country, the consistent development of export and import industries, the production of quality products, as well as to supply the population with quality products. A number of resolutions and orders have been developed. Including the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “On additional measures to improve the system of accounting for grain and its processed products, strengthen control over their storage” [1], Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on measures to create an effective system for the development of production and expansion of production cooperation in the republic [2], Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “Digitalization in the agro-industrial complex and agriculture of the Republic of Uzbekistan. Decision on measures to develop the system” [3], resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan on “Measures for the widespread introduction of the digital economy and e-government”.

The demand for grain and grain products in our country is great. This places a great responsibility on enterprises. The use of science and technology in enterprises is the reason for many successes. Among them are the following graphs.




Figure 1. Volume dynamics of cereal production in our country for the next 5 years (in tons).




Figure 2. Volume dynamics of export and import indicators of grain products in our country for the next 5 years (in tons).

From this it is clear that the grain industry is developing every year, however, we will also touch on a number of shortcomings of the enterprise's production system.

In this article we will point out the shortcomings of grain processing processes, including threshing grain ears, in the previous system and discuss ways to eliminate them.

The main task facing workers in the flour milling industry is to increase production and quality of finished products. Solving this problem is impossible without the use of an automated control system for the processes of moistening and cleaning grain before grinding.[4]

Cold hydrothermal treatment is the simplest method of moisture-thermal treatment for the purpose of purposefully changing the properties of grain and does not require complex equipment. Cold conditioning schemes for grain grinding involve processing the grain in a washing machine.

The effectiveness of cold grain conditioning largely depends not on the average moisture content of the grain mass, but on the uniformity of moisture content of the individual grains that make up this grain mass. Moisture transfer from more moistened grains to less moistened ones occurs only during long-term boiling of the grain.[5]

The subject of the article is mainly the analysis of quality indicators of grain products.

Optimization of technological technologies, grain characteristics, and its processing by hydrothermal method. Grain conditioning is used in flour, grain and feed production technologies. Technological improvements are achieved by adjusting processing parameters depending on the properties of the grain (for example, temperature, pressure, humidity, duration of output operations). In a scientific journal

of the twentieth century, the term “grain conditioning” was replaced by the term “hydrothermal processing of grain.”

Hydrothermal treatment of grain is used in the production of grain from buckwheat, oats, barley, and wheat. In this case, the process becomes significantly more complicated (compared to hydrothermal processing of grain to produce flour). As a result, a significant reduction in the strength of the films covering the grain and a strengthening of the core is achieved, which increases the yield of high-quality grain. In addition, specially developed hydrothermal grain processing technology is used for grain processing.

Hydrothermal processing of grain allows not only to change technology, but also to improve the quality of grain, as well as the consumer characteristics of the finished product, for example, by choosing the optimal parameters for hydrothermal processing of grain, you can improve the culinary properties of flour[6].

Two types of conditioning are used in flour production:

- Cool and high speed.
- The main parameters of the air conditioner:
- Humidity, duration of infusion, temperature, pressure.

A specific combination of parameters, that is, hydrothermal treatment, is the simplest method of moisture-thermal treatment to purposefully change the properties of grain, such as parameter values.

REFERENCES:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-1004810?ONDATE=01/23/2018>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-5836411>
3. <https://lex.uz/ru/docs/-5179198?ondate=14.07.2022%2000>
4. Podgorny S.A. “Automation of control and management of cold conditioning of grain before grinding”. Krasnodar 2005
5. <https://studfile.net/preview/7715418/page:10/>
6. https://old.bigenc.ru/technology_and_technique/text/2089768